

ISSN: 2181-1040
DOI: 10.26739/2181-1040
tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 5 | **2024**
ISSUE 3

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 5, СОН 3

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 5, НОМЕР 3

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 5, ISSUE 3



Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ҲАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ISFT professori, siyosiy fanlar doktori (O'zbekiston)

МАХМУДОВА ГУЛИ ТИЛАБОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
қошидаги "Фалсафа" илмий марказ раҳбари,
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси илмий
ва инновация ишлари бўйича проректори,
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD доктори (АҚШ)

АНТонио Алонсо Маркос

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети
халқаро ишлар бўйича проректори,
филология фанлари доктори,
профессор (Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ГАБИТОВ ТУРСУН ҲАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети "Фалсафа" кафедраси
муdiri, фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган муҳандислик-технология институти профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ИНАКОВ КОМИЛЖОН ҚОДИРЖОНОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети доценти, педагогика фанлари бўйича
фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ТОШОВ ХУРШИД ИЛХОМОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доц.в.б., фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн-саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философии (PhD), по философским наукам, доцент
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философских наук (PhD), Национальный
университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана,
профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана,
академик Академии художеств Узбекистана,
доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института,
доктор политических наук (Узбекистан)

МАХМУДОВА ГУЛИ ТИЛАБОВНА

руководитель Научного центра «Философия» при
Национальном Университете Узбекистана имени Мирзо
Улугбека, доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

проректор по научным исследованиям и инновациям
Международной исламской академии Узбекистана,
доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры
Славянских языков и литературы
Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета
CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

проректор по международным связям
Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук,
профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра,
доктор исторических наук (США)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор кафедры религиоведения и культурологии
Казахского Национального Университета имени Аль-Фараби,
доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

заведующая кафедрой «Философия» Андижанского
государственного университета, кандидат
философских наук, профессор. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганского инженерно-технологического
института, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоийского государственного педагогического института,
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)

ИНАКОВ КАМИЛЖОН КАДЫРЖАНОВИЧ

доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD)
по педагогическим наукам (Узбекистан)

ТОШОВ ХУРШИД ИЛХОМОВИЧ

доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

и.о. доцент Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека, доктор философии
по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

доцент Наманганского государственного университета, доктора
философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD)
(Узбекистан)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант кафедры Философии и логики Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences,
Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Deputy Chief Editor:

KHODZHIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of
Arts of Uzbekistan, Doctor of
Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies
at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

MAKHMUDOVA GULI TILABOVNA

Head of the Scientific Center "Philosophy"
at the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, Doctor of
Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Vice-Rector for Research and Innovation of the
International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature
of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU
named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,
Doctor of Historical Sciences (USA)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

the head of the "Philosophy" department of Andijan
State University, DCs, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan Institute of Engineering
and Technology, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor
of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

INAKOV KOMILJON KODIRJONOVICH

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

TOSHOV KHURSHID ILKHOMOVICH

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,
Doctor of Philosophy (PhD) (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Associate Professor of the National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Associate Professor of Namangan State University,
Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RO'ZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD O'G'LI

doctoral student of the National University of Uzbekistan
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

EDITORIAL STAFF OF THE JOURNALS OF WWW.TADQIQOT.UZ

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Hamid Sulaymon, Erkinov Aftondil Sadirxonovich NAVOIY ASARLARINING MANBA'LARI VA NASHRI HAQIDA.....	7
2. Yusupova Dildora Dilshatovna ISLOM MODERNIZMINING TARIXIY-FALSAFIY TAHLILI.....	27
3. Djurayev Avaz Ahmedjanovich, Zakirov Shakir Mamajanovich AJDODLAR DONOLIGI: ZAMONAVIY DUNYODA KONFUTSIY MEROSI.....	35
4. Lalixon Muxamedjanova GLOBALLASHUV JARAYONIDA ZAMONAVIY AXLOQIY MUAMMOLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	43
5. Ro'ziboyev Dostonbek Dilmurod o'g'li XX ASRNING IKKINCHI YARMIDAGI G'ARB ORIENTALIZMI INQIROZINING FALSAFIY TAHLILI.....	49
6. Xudjaqulova Feruza Raxmatovna JAMIYATNING MAFKURAVIY HAYOTI, UNING TARKIBIY TUZILISHI VA NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI.....	58
7. Berdimuratova Lazzat Duysenovna QIZILQUM HUDUDIDAGI GIDRONIMLAR VA ANTROPOGIDRONIMLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI.....	66
8. Normo'minova Nasiba Dilshod qizi BASHORAT TUSHUNCHASINING FALSAFIY TALQINI.....	76
9. Kobilova Makhfuza Sherali kizi ANALYSIS OF LEXICAL-SYNTACTIC AND SYNTACTIC STYLISTIC MEANS OF LANGUAGE.....	83


МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

Normo‘minova Nasiba Dilshod qizi
Angren universiteti o‘qituvchisi
E-mail: nasibanormominova3@gmail.com

BASHORAT TUSHUNCHASINING FALSAFIY TALQINI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14679630>

ANNOTATSIYA

Ilmiy bashorat insoniyatning kelajakni oldindan bilishga, tasavvur qilishga va uni boshqarishga intilishlarini ifoda etuvchi bilim shaklidir. Bu tushuncha, o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra, inson tafakkurining keng qamrovli, murakkab va ko‘p qirrali faoliyatlaridan biri hisoblanadi. Falsafiy jihatdan ilmiy bashoratni ko‘rib chiqish bir qancha qiziqarli savollarni tug‘diradi: Bashorat qilish qanchalik mumkin? Bashorat qilish faqat bilishga bog‘liqmi yoki inson tafakkuriga ham bog‘liqmi? Ilmiy bashoratning falsafiy mazmuni va u qanday asoslar orqali shakillanadi? Mazkur maqolada ushbu ko‘tarilgan savollarga javob berishga harakat qilinadi. Muallif, mazkur mavzuni tahlil qilish orqali bashorat tushunchasining falsafiy jihatlarini tushuntirgan holda, ularning nazariy negizlarini ham ko‘rsatib o‘tadi. Shu bilan birga, bu jarayonda ilmiy bashoratning bilishga asoslangan analitik mexanizmlar bilan insonning ijodiy va intuitiv qobiliyatlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar yoritib beradi. Shuningdek, maqolada bashorat qilishning zamonaviy ilm-fan taraqqiyoti bilan qanday aloqadorligi va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Bashorat, prognoz, determinizm, falsafa, din, nazariya, metodologiya, ilmiy bashorat, globalizm, probalistik modellar, sinergetika.

Nasiba Normo‘minova Dilshod qizi
Lecturer at Angren University
E-mail: nasibanormominova3@gmail.com

PHILOSOPHICAL INTERPETATION OF THE CONCEPT OF PREDICTION**ABSTRACT**

Scientific foresight is a form of knowledge that reflects humanity’s aspiration to predict, envision, and shape the future. From a philosophical perspective, examining scientific foresight raises several intriguing questions: To what extent is foresight possible? Does prediction depend solely on knowledge, or is it also contingent on human cognition? What is the philosophical essence of scientific foresight, and through what foundations is it established? This article attempts to address these questions. Additionally, this article provides a philosophical analysis of the concept of scientific foresight and explores its theoretical underpinnings.

Key words: Foresight, prediction, determinism, philosophy, religion, theory, methodology, scientific forecasting, globalism, probabilistic models, synergetic.

Нормуминова Насиба Дилшод кизи
Преподаватель Ангреновского университета
E-mail: nasibanormominova3@gmail.com

ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРАТАЦИЯ ПОНЯТИЯ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

Научное предвидение — это форма знания, отражающая стремление человечества предвидеть, представлять и определять будущее. Рассмотрение научного предвидения, с философской точки зрения, порождает ряд интересных вопросов: насколько возможно предсказание? Зависит ли предвидение только от знания или от человеческого мышления? Каково философское содержание научного предвидения и на каких основаниях оно утверждается? В данной статье предпринята попытка ответить на эти поставленные вопросы. Также в этой статье философски анализируется понятие научного предвидения и изучаются его теоретические основы.

Ключевые слова: Предвидение, прогноз, детерминизм, философия, религия, теория, методология, научное предвидение, глобализм, вероятностные модели, синергетика.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Ilmiy bashorat - bu ma'lum bir hodisaning kelgusidagi rivojlanish jarayonlarini yoki natijalarini ilmiy asoslar orqali oldindan aytishdir. Ilmiy bashorat odatda ilmiy metodologiyaga tayanadi. U hodisalarning o'zgarish dinamikasini, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, modellar tuzish va tajribalar orqali tasdiqlashga asoslanadi. Shunday qilib, ilmiy bashoratning falsafiy mazmuni, bir tomondan, tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlarni tushunishdan, ikkinchi tomondan esa, bu qonuniyatlarni amaliy qo'llash orqali kelajak haqida aniq bilim olishdan iborat. Ilmiy bashorat tushunchasi asosan faylasuflar va olimlar tomonidan ko'p qirrali tahlil qilingan. Xususan, "Aristotelning falsafiy asarlarida bashorat qilinadigan hodisalarning muhimligi va ularni oldindan bilish imkoniyati haqida fikr yuritilgan. Aristotel bashorat qilishni bilish jarayoni bilan bog'lagan va uni sof nazariy bilimlar doirasida talqin qilgan" [1, 23-b]. Keyinchalik, Kant va Gegel kabi faylasuflar ilmiy bashorat va bilishning imkoniyatlarini o'rganishgan. Ayniqsa, Kant bilishning chegaralarini ko'rib chiqish orqali ilmiy bashoratning qanchalik ishonchli ekanligini tahlil qilgan. U ilmiy bilishning empirik ko'rsatmalarga asoslanganligini ta'kidlagan va bashorat qilishda tajribaning muhimligini qayd etgan. Ilmiy bashoratning falsafiy mazmunini to'liq anglash uchun, avvalo determinizm tushunchasini o'rganish lozim. Determinizm qonuniyati bo'yicha, barcha hodisalar o'zaro bog'liq va sababiy aloqalarga asoslanadi. Bu falsafiy qarash bashorat qilishning nazariy asoslarini mustahkamlaydi, chunki sabab-oqibat zanjirini tushunish orqali kelajakni bashorat qilish mumkin bo'ladi. Masalan, Nyuton mexanikasidagi sabab-oqibatlikni tushunish orqali kelajakdagi hodisalarni bashorat qilish mumkin. Falsafiy determinizm shuni ta'kidlaydiki, agar biz tabiatning barcha qonuniyatlarini bilsak, unda kelajakni aniq bilib olishimiz ham mumkin bo'ladi. Ammo bu nazariya keyingi falsafiy rivojlanishlarda, ayniqsa kvant mexanikasi kashfiyoti bilan tanqid ostiga olindi. "Falsafiy determinizmga qarama-qarshi bo'lgan indeterminizm qarashlari esa, hodisalar rivojida tasodifning muhim o'rni borligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, kvant nazariyasi shuni ko'rsatadiki, tabiatda ba'zi jarayonlar tasodifiy va oldindan aytib bo'lmaydigan xususiyatlarga ega" [2, 44-b]. Bu esa ilmiy bashoratning imkoniyatlarini cheklaydi. XX asr boshlarida kvant nazariyasi rivojlanishi bilan bashorat qilishning probabilistik yondashuvlari shakllandi. Kvant mexanikasi shuni ko'rsatdiki, ba'zi jarayonlarni mutlaq aniqlikda bashorat qilish mumkin emas, balki ularning rivojlanish ehtimolligini hisoblash mumkin. "Shunday qilib, probabilistik yondashuvlar bashorat qilish jarayonida muhim o'rin tutdi. Kvant mexanikasida bashorat qilish masalasi Heizenbergning noaniqlik prinsipi orqali yoritilgan" [3, 77-b]. Unga ko'ra, zarrachalarning holatini aniq bilishning iloji yo'q, faqat ma'lum bir ehtimollik darajasida bu jarayonlarni oldindan bilish mumkin. Bu yondashuv falsafiy jihatdan ilmiy bashoratning aniqlik chegaralarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. "Probabilistik yondashuvlar tabiiy va ijtimoiy fanlarda ham keng qo'llanila boshlandi. Masalan, iqlim bashorati, iqtisodiy prognozlar va demografik o'zgarishlar probabilistik modellar orqali oldindan

aytiladi” [4, 56-b]. Bu modellar ilmiy bashoratning ishonchli bo‘lishi uchun ehtimollikni aniq hisoblash imkonini beradi.

Ilmiy bashorat texnologik taraqqiyot bilan ham chambarchas bog‘liq. Texnologik rivojlanish insoniyatga kelajakni yanada aniqlik bilan bashorat qilish imkonini beradi. Masalan, kompyuter texnologiyalari va sun‘iy intellektning rivojlanishi bashorat qilishning yangi usullarini ochib berdi. Modellashtirish va katta hajmdagi ma‘lumotlar tahlili orqali kelajakdagi hodisalarni bashorat qilish osonlashdi. Shuningdek, texnologik taraqqiyot ilmiy bashoratning falsafiy asoslarini ham qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘ldi. Masalan, sun‘iy intellekt yordamida insonning bashorat qilish imkoniyatlarini oshirish masalasi falsafiy munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Inson aqlidan mustaqil bashorat qilish mumkinmi yoki bu jarayon har doim inson tafakkuri bilan bog‘liq bo‘ladimi? Ilmiy bashorat tushunchasi falsafiy tahlil uchun keng qamrovli mavzudir. Ilmiy bashoratlarni o‘rganish, nafaqat ilmiy bilimlarning aniqligini oshirish, kelajak taraqqiyot tendensiyalarini belgilash uchun ham muhim hisoblanadi. Xuddi shu sanab o‘tilgan sabablar mazkur maqolaning dolzarbligini belgilab beradi.

Metodlar va o‘rganilganlik darajasi. Bashorat tushunchasining shakllanishi murakkab tarixiy va falsafiy genezisga ega bo‘lib, bu tushuncha ko‘plab davrlar, madaniyatlar va falsafiy oqimlar orqali rivojlangan. Bashorat, ya‘ni kelajakni oldindan bilish yoki ko‘rish g‘oyasi qadimgi dinlar, falsafiy tizimlar va madaniy an‘analar doirasida shakllangan. Qadimgi jamiyatlarda bashorat tushunchasi ilohiy va diniy ahamiyat kasb etgan. Misr va Mesopotamiya madaniyatlarida bashoratchilar (orakullar) orqali ilohiy xabarlar va kelajak voqealari haqida bilishga intilish keng tarqalgan edi. Yunon falsafasi va diniy amaliyotlarida ham bashorat muhim o‘rin tutgan. Delfi orakuli, Apollon xudosi orqali kelajak haqida ma‘lumot beradigan eng mashhur orakullardan biri hisoblanadi. Platon va Aristotel kabi faylasuflar bashorat va uning ilmiy yoki irratsional manbalari haqida mulohazalar yuritishgan.

Falsafiy nuqtai nazardan bashorat tushunchasi tarixiy shakllanishini keltiradigan bo‘lsak: qadimgi yunon faylasuflari bashorat tushunchasiga turli xil falsafiy yondashuvlar bilan qarashgan. Bu tushuncha ko‘pincha insonning ilohiy bilim va qismat bilan bog‘liqligini aks ettirgan bo‘lsada, har bir faylasuf uni o‘z falsafiy tizimida o‘ziga xos tarzda talqin qilgan.

Platon bashoratni insonning aqliy va ruhiy qobiliyatlari bilan bog‘lagan. Unga ko‘ra, bashorat va ilohiy bilimlar inson ongining yuqori darajasiga, ya‘ni ilohiy ilhom bilan bog‘liq bo‘lib, bu qobiliyat insonga ma‘lum bir darajada ilohiy dunyo bilan bog‘lanishga imkon beradi. “Platon o‘z asarlarida bashoratni, ayniqsa, “Faylasuf-qirolicha” konsepsiyasi orqali talqin qilib, bashorat qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilarni yuqori darajali aqliy va ma‘naviy qobiliyatlarga ega shaxslar deb biladi” [5, 125-140-b].

Qadimgi hind falsafasidagi veda va upanishadlar, ibodat va harakatlar zamirida kelajak tuzilishi, falsafiy va diniy qarashlar sifatida aks etgan. Qadimgi hind falsafasida ham sabab oqibat zanjiri sifatida karma tizimi, ya‘ni harakatlar kelajakni belgilashi, harakatlarga ko‘ra natijalar, bashorat sifatida talqin qilingan.

Qadimgi Xitoy falsafasida ham bashorat qilish, muhim o‘rin egallagan. Masalan, “O‘zgarishlar kitobi” hisoblangan I Tsin geksagramlarini talqin qilish orqali kelajakni bashorat qilish uchun ishlatiladigan qadimgi Xitoy matni hisoblanadi. I Tsin asosiy g‘oyasi - hamma narsaning doimiy o‘zgarishi va o‘zaro bog‘liqligi. Ushbu matn hozirgi vaziyatni tushunish va geksagramlar asosida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan natijalarni bashorat qilish uchun ishlatiladi” [6, 12-13-b].

Daosizm esa meditatsiya orqali asliyatga qarash, shuningdek kuzatish va asl qonuniyatlarni tushunish orqaligina kelajakni bashorat qilish mumkinligini ta’kidlaydi. Ushbu ta’limot bo‘yicha harakat(sabab) va bashorat(oqibat) umumiy dao ya‘ni barqaror qonuniyatni tashkil etadi.

O‘rta asrlarda bashorat tushunchasi falsafiy jihatdan chuqur o‘rganilgan va ko‘p jihatdan diniy va ilohiy bilimlarning ta’sirida muhokama qilingan. Shuningdek, bashorat tushunchasi o‘rta asrlarda diniy e’tiqod, inson taqdiri va inson erkinligi kabi falsafiy munozaralar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ushbu davr G‘arb faylasuflarining bashorat va olam to‘g‘risidagi fikrlari xristian dunyoqarashi bilan yo‘g‘rilgan.

“Ilk Xristian falsafasida Avliyo Avgustin ongda universallar mavjudligini va bu universallarni tushunish uchun inson ongi Xudo tomonidan yoritilganligini ta’kidlab, yorug‘lik va ichki so‘zlar nazariyasini ishlab chiqdi. Uning ta’kidlashicha Xudo absolyut bilimga va oldindan barcha narsalarni bilish imkoniyatiga ega” [7, 17-b].

“Islom falsafasi o‘rta asrlarda bashoratni ko‘proq aqliy va ilohiy bilishning uyg‘unligi sifatida talqin qilgan. Al-Farobiy bashoratni insonning aql va tasavvuri bilan bog‘lab, bashoratni insonning ilohiy ilhom orqali bilish qobiliyati sifatida izohlagan. U bashoratni ong va tasavvur o‘rtasidagi bog‘liqlik orqali tushuntirgan” [8, 263-279-b]. O‘rta asrda bashorat tushunchasi falsafiy jihatdan diniy ilohiy bilish, aql va tasavvurga asoslangan edi. Bashorat ko‘pincha insonning ilohiy bilimlar bilan bog‘lanishi va kelajakni oldindan bilish qobiliyati sifatida ko‘rilgan.

Uyg‘onish davrida bashorat tushunchasi diniy, ijtimoiy va ilmiy sohalarda sezilarli darajada rivojlandi va o‘sha davr g‘oyalari va hodisalarining ta’siri ostida o‘ziga xos talqinlarga ega bo‘ldi. Endilikda bu davrda mantiq, kuzatuv va eksperimentlar har qanday faraz yoki qarashlarni shuningdek shaxsiy ishonchga asoslangan fikrlarni tekshira boshladi. Bashorat qilish qat’iy mezonlarga asoslangan holda dunyoning umumiy ilmiy manzarasi shakllana boshladi. Uyg‘onish davrida bashoratning ilmiy va aqliy asoslari ham o‘rganila boshlandi. Bu davrda tasavvur va bashorat inson psixikasi va ruhiy qobiliyatlari bilan bog‘liq deb qaralgan. Faylasuflar bashorat va ongni o‘rganishda tasavvur kuchining roli haqida bahslashganlar [9, 561-591-b]. Tasavvur va bashoratning bu kabi tushuntirishlari yangi ilmiy qarashlar bilan bog‘langan.

“XV-XVI asrlarda G‘arb falsafiy maktablarida ilmiy bashorat tushunchasi turli falsafiy yondashuvlar orqali rivojlantirildi. XV-XVI asrlarda G‘arbda Aristotel va Neoplatonizmning falsafiy yondashuvlari dominant edi. Bu maktablar bashoratni asosan ilmiy va tabiat qonunlari bilan izohlashga harakat qilishgan. Neo-Platonizm bashoratni insonning ruhiy va ilohiy tabiat bilan bog‘lanishi sifatida talqin qilgan, bu esa ilmiy bilish jarayonini ham ilohiy nuqtayi nazardan tushuntirishga yordam bergan”. “Biroq ilmiy bashoratga bo‘lgan munosabatda empirizm yondashuvi XVI asrning oxirida sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Frensis Becon va Galileo Galiley ilmiy bashoratni tajriba va kuzatishga asoslashga e’tibor qaratgan” [10, 85-b]. Bu davrda ilmiy nazariyalarni sinash va kelajakdagi hodisalarni bashorat qilish jarayonida ilmiy tajribalar muhim o‘rin egallay boshlagan edi.

XV-XVI asrlarda G‘arb falsafiy maktablari ilmiy bashoratga nisbatan ko‘plab yondashuvlarni taklif qilishdi. Aristotelizm va neoplatonizm bashoratni ilohiy va tabiiy qonunlarga bog‘lashga harakat qilgan bo‘lsa, empirizm esa tajriba va kuzatish orqali bashoratni ilmiy asosda amalga oshirishga e’tibor qaratgan.

XVII-XVIII asrlarda bashorat tushunchasi falsafiy, diniy va siyosiy ma’nalarda keng talqin etilgan. Faylasuflar bashoratni ilohiy qonunlar, siyosiy hokimiyat va diniy reformatsiyalar bilan bog‘lashga harakat qilishgan. Bashorat bu davrda nafaqat kelajakni oldindan ko‘rish, balki siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarning vositasi sifatida tushunilgan.

XX asrda bashorat tushunchasining falsafiy talqini psixologiya, teologiya va ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar bilan bog‘liq ravishda keng o‘rganilgan. XX asrda bashorat tushunchasi siyosiy prognoz va strategiyalar bilan ham bog‘liq tarzda ko‘rib chiqilgan. George Eliot o‘zining “Romola” nomli asarida bashoratni tarixiy ilmiy izlanishlar natijasida yuzaga keladigan siyosiy tahlil va kelajakni oldindan bilish usuli sifatida talqin qilgan [11, 233 – 259]. Bu talqin bashoratni aql va tarixiy tadqiqotlar orqali kelajakni bilish vositasi sifatida qabul qilgan. XX asrda bashorat tushunchasining falsafiy talqini ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy g‘oya va masalalar bilan bog‘liq ravishda keng ko‘lamda tadqiq qilindi.

XXI asrning dastlabki choragi falsafiy tadqiqotlari tahlil qilinarkan ilmiy bashorat ma’lumotlarni ko‘p qirrali tahlil qilish, global o‘zgarishlarni tushunish, ijtimoiy muammolarni ko‘ra bilish, va ilmiy jarayonlarining qiymatlarini tahlil qilish yuzasidan keng tadqiq qilindi.

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, sinergetika kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Prognozlash tushunchasi antik va o‘rta asrlarning mistik, diniy usullaridan hozirgi zamonning murakkab ilmiy-matematik modellarigacha bo‘lgan transformatsion yo‘lni bosib o‘tdi. Bu esa inson faoliyatining turli sohalarida kelajakni yanada aniqroq bashorat qilish imkonini yaratdi.

Dastlabki tartibsiz holatdan tartib holatiga o'tishda fanda tizim, tartib va klassifikatsiyalar shakllandi. "Bu qanday paydo bo'lgan?" degan savol har qanday jarayonga beriladigan dastlabki savol bo'lsa, "buning mavjudligi nimalarga asoslanadi?" degan savol esa unga nisbatan beriladigan ikkinchi savol hisoblanadi. Tizimlashtirishdagi uchinchi savol: "bu nima bilan tugaydi, buning ta'sirida nima vujudga keladi?" degan ma'noda keladi.

Agar vaqt matritsasi kesimida ushbu savollarni qiyoslasak "bu qanday paydo bo'lgan?" – o'tmishni, "Buning mavjudligi nimalarga asoslanadi?" – bugunni va "Bu nima bilan tugaydi, buning ta'sirida nima vujudga keladi?" – kelajak (bashorat)ni anglatadi.

Masalan bu yerda, o'rganilayotgan jarayon yoki obyektning miqdori, o'lchami, sifati u bilan bog'liq barcha ma'lumotlar – o'tmish. Ma'lumotlarni mantiqlashtirish, asoslash, eksperimentlarni tasdiqlash uchun faraz va nazariyalar ishlab chiqish – bugun. Kuzatuvda olingan ma'lumotlarning mantiqiy, nazariy modellarining, boshqa jarayonlar bilan aloqasi, kelajakdagi trayektoriyasini belgilash, taxminiy kompelyativ protseduralari – kelajak ya'ni bashorat hisoblanadi. Buning qisqacha mexanizmi quyidagicha: kuzatuv --> dalil-->prognoz. Kuzatuv, dalil va bashorat tsiklik tarzda vaqt va faoliyatga proporsional shaklda, har qanday fanlar arxitekturasini axborot eroziyasidan tozalaydi, noaniqlikdan aniqlikka, tartibsizlikdan tartibga o'tqazadi.

Keling, fanda tartibsizlikdan tartibga o'tish jarayonini aniq bir misol - iqlim tadqiqotlari yordamida ko'rib chiqaylik.

Bu qanday sodir bo'ldi? (O'tmishda): Tadqiqotchilar harorat, yog'ingarchilik, atmosferadagi karbonat anhidrid konsentratsiyasi va boshqa parametrlar kabi tarixiy iqlim ma'lumotlarini to'playdi. Ushbu ma'lumotlar turli manbalardan to'planadi: muz yadrolari, daraxt halqalari, tarixiy yozuvlar va boshqa usullar. Bu ma'lumotlarning barchasi Yerning o'tmishdagi iqlimi haqida ma'lumot beradi.

Bu mavjudlikning asosi nima? (Hozirgi): Yig'ilgan ma'lumotlarga asoslanib, olimlar hozirgi iqlim sharoitlarini tushuntirishga yordam beradigan iqlim modellarini ishlab chiqadilar. Ular quyosh radiatsiyasi, issiqxona gazlari, okean oqimlari va boshqalar kabi turli omillarning o'zaro ta'sirini tahlil qiladilar. Ushbu bosqichda mavjud nazariyalarni tasdiqlash yoki rad etish uchun ko'plab tajribalar va gipoteza sinovlari o'tkaziladi. Bu hozirgi iqlim jarayonlarini va ularning atrof-muhitga ta'sirini tushunishga yordam beradi.

Bu qanday tugaydi, bundan nima chiqadi? (Kelajak): Olimlar ishlab chiqilgan modellar va nazariyalardan foydalanib, kelajakdagi iqlim haqida bashorat qiladilar. Ular harorat, dengiz sathi, ekstremal ob-havo hodisalari chastotasi va boshqa iqlim parametrlaridagi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni prognoz qiladilar. Ushbu prognozlar iqlim o'zgarishiga moslashish va yumshatish strategiyalarini ishlab chiqish uchun ishlatiladi.

Ilmiy bashorat va noilmiy bashoratlar ikkalasi ham kelajakni belgilashga va tavsiflashga qaratilgan, lekin ushbu iboralarning farqi juda katta. Ilmiy bashorat ma'lumotlarni to'plash, ularni tizimlashtirish, kuzatuv, eksperimentlarga asoslanadi. Ularning asoslari undan oldingi mantiqiy va kuzatuv – tajribadan olingan ma'lumot hisoblanadi. Ular tekshirish, qaytarilish mexanizmidan so'nggina haqiqatga aylanadi.

Noilmiy bashoratlar tekshirilmagan ma'lumot, intuitsiya va shaxsiy qarashlardan iborat. Noilmiy bashorat aniq mantiqiy tuzilmadan tashkil topmaydi va ularni tekshirish mezonining universal mexanizmi mavjud emas. Ular fol ochish, astrologiya, shaxsiy kuzatuv va qarashlardan tashkil topadi va odatda, "nega?" va "nima uchun?" kabi savollarga javob bermaydi. Ular odatda jiddiy tekshiruv va tasdiqlash mezonlaridan o'tmaydi. Ular nochiziqli metodlar va shaxsiy faktlardan tashkil topganligi sababli ulardan olingan natijalarni barcha jarayonlarga qo'llash mumkin emas. Ko'pincha noilmiy bashoratlar shaxsiy manfaatlar, shaxsiy qiziqishlar va ishontirish uchun ishlatiladi.

Lekin har qanday jarayonning nochiziqli harakatlari yoki nochiziqli tizimlar noilmiy sohalarga oid emas, gap shundaki, obyekt yoki jarayon bashorat qilinishi uchun tizim holatida va chiziqli faoliyat amalga oshirishi kerak. Nochiziqli tizimlarda harakat mexanizmidagi elementlardagi faoliyatida proporsiyalar ta'minlanmaydi, kirish elementlari va chiqish elementlari orasida chiziqli faoliyat amalga oshmaydi. Nochiziqli tizimlardagi kichik harakatlar katta oqibatlariga olib kelishi, yoki dissipativ harakatdagi, kollektiv harakatdagi natijalar alohida holatlarda kuzatilmaydi. Shuni

ta'kidlash lozimki nochiziqli tizimlarni prognozlashtirish murakkabligi ularning noilmiy ekanligini anglatmaydi. Noilmiy bashorat aslini olganda nochiziqlilik bilan bog'liq emas.

Noilmiy bashoratlar qadimda barcha jarayonlarga nisbatan qo'llanilgan. Masalan mif va afsonalar orqali kelajakni tavsiflash ham noilmiy bashorat turkumiga mansub. Bugunga kelib noilmiy tavsiflanadigan jarayonlar kamligi fan taraqqiyot rivojlanib ko'plab jarayonlar tadqiq qilinib, tizimlanib ularni harakatlari o'rganilib, bashoratlarda tekshirilib ular tasdiqlangan. Shu bois noilmiy bashoratlar ilmiy bashoratlarga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Faqatgina ilmiy patologik muammolarga nisbatan noilmiy bashoratlar saqlanib qolgan. Ilmiy patologik muammolar sirasiga asoslab ham, inkor qilib ham bo'lmaydigan jarayonlar va obyektlar kiradi. Masalan o'zga sayyoraliklar borligini tasdiqlab ham, yo'qligini asoslab ham bo'lmaydi. Chunki tahlil, o'rganish va ma'lumotlar yig'ish doirasi cheklangan, shu sababli ham ko'pgina noilmiy bashoratlar shu kabi patologik muammolarda qolgan xolos.

Borliq determenizm zanjiridagi voqealarning ketma – ketligi xisoblansa, ular ko'lam va hajmga egadir. Agar borliq ko'lam va hajmga ega xarakatdagi mexanizm bo'lsa, ushbu mexanizmning tizim xolati uning tavsifidir. Tizimning umumiy ko'rsatkichlariga ko'ra uning kelajakdagi xarakterlarini modellashtirish yoki rejalashtirish bashorat xisoblanadi. Umumiy ko'rsatkichlar barqaror va beqaror, chiziqli va chiziqsiz, o'zgarmas va o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Umumiy xarakter yoki faoliyatdagi mexanizmlarning takroriyligi, gomogenligi uzviyligi va barqarorligi ushbu jarayonlarni tizim sifatida tavsiflasa. Ushbu tizimning xususiyatlaridagi takroriy, barqaror, uzviy va tashqi ta'sirlarga bosqichli moslashuvi reaksiyalari orqali uning kelajak trayektoriyasi belgilash – bashorat xisoblanadi.

Bashorat birinchi navbatda aqliy rekonstruksiya hisoblanib, jarayonning kelajagi tafakkurda modellashtirish, model odatda kuzatilgan vaziyatlarda mavjud tendensiyalar saqlansa, davom etsa, u holatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan voqealarni bashorat qilish uchun ishlatiladi. Shuningdek maqsadlarga erishishning muqobil usullari sifatida ham bashorat ahamiyatlidir.

Trafikni bashorat qilish modellari transport tizimlarini optimallashtirish va tirbandlikni oldini olish uchun transport ma'lumotlarini, yo'l sharoitlarini va boshqa omillarni tahlil qiladi. Intellektual transport tizimlari svetoforlarni boshqarish va yo'llardagi harakatni optimallashtirish uchun bashoratlardan foydalanadi. Logistika kompaniyalari etkazib berish yo'nalishlarini rejalashtirish va inventarni boshqarish uchun prognozlardan foydalanadilar. Ayni sohada o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, qisqa muddatli trafikni bashorat qilish va marshrutlarni optimallashtirish uchun sun'iy neyron tarmoqlardan (ANN) foydalanilmoqda. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bunday modellar vaqt va resurslarni tejab, yo'l harakati sharoitlarini aniq prognozlash va marshrutlarni optimallashtirish imkonini beradi [11, 18-b]. Vaqt, makon va chastota omillari asosida yo'lovchilar hajmini prognoz qilish uchun DTMGP kabi gibrid modellardan foydalanish, bashorat qilishning aniqligi va harakatni boshqarishni sezilarli darajada yaxshilaydi [12, P. 935-946].

Ijtimoiy fanlarni bashorat qilish modellari jamoatchilik fikri va xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarni bashorat qilish uchun ijtimoiy tarmoqlar, so'rovlar va boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi. Siyosiy kompaniyalar strategiyalarni rejalashtirish va saylovlarni o'tkazish uchun prognozlardan foydalanadi. Marketing kompaniyalari reklama kompaniyalarini ishlab chiqish va mahsulotlarni ilgari surish uchun prognozlardan foydalanadilar.

Ilmiy prognozlash keng amaliy modullarga ega va hayotning turli sohalarida muhim rol o'ynaydi. Bu sizga asosli qarorlar qabul qilish va kelajak uchun harakatlarni rejalashtirishga yordam beradi, bu esa hayot sifatini yaxshilashga va turli jarayonlar samaradorligini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar va usullar rivojlanishda davom etib, prognozlash va uning aniqligi va dolzarbligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Ilmiy bashoratning oldindan aytib bo'lmazlik va noaniqlik, ma'lumotlar cheklovi, axloqiy va ijtimoiy oqibatlarini, sharhlash va qo'llash muammosi bilan bog'liq bir qator kamchiliklarini qayd etish mumkin.

Yutuqlarga qaramay, ko'plab tizimlar murakkabligi va chiziqli bo'lmaganligi sababli juda oldindan aytib bo'lmaydigan bo'lib qolmoqda. Modellar har doim ham barcha o'zgaruvchilar va mumkin bo'lgan o'zaro ta'sirlarni hisobga olmaydi, bu esa bashoratlarda noaniqlikka olib keladi.

Ilmiy bashorat mavjud ma'lumotlarning sifati va miqdoriga juda bog'liq. To'liq bo'lmagan, noto'g'ri yoki buzilgan ma'lumotlar prognozlarining aniqligini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, ba'zi hududlarda ma'lumotlarni yig'ish qiyin yoki imkonsiz bo'lishi mumkin.

Ilmiy bashoratlar, ayniqsa, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda, shaxslar va tashkilotlarning xatti-harakatlariga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, iqtisodiy prognozlar bozorda vahima yoki spekuliyativ harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu olimlarni bashoratlarining mumkin bo'lgan oqibatlarini ko'rib chiqishga va axloqiy tarzda harakat qilishga chaqiradi.

Hatto aniq prognozlar ham noto'g'ri talqin qilinishi yoki noto'g'ri ishlatilishi mumkin. Modelni yoki uning cheklovlarini yetarli darajada tushunmaslik noto'g'ri qarorlarga olib kelishi mumkin. Bu nafaqat to'g'ri bashorat qilish, balki ularni to'g'ri talqin qilish va qo'llash muhimligini ta'kidlaydi.

Xulosa. Ilmiy bashorat bizning kelajakni bashorat qilish va rejalashtirish qobiliyatimizni sezilarli darajada oshirgan kuchli vositadir. Biroq, barcha yutuqlarga qaramay, kamchiliklar va cheklovlardan xoli emas. Zamonaviy ilm-fan ularni engish, bashorat qilishni yanada aniq, ishonchli va axloqiy me'yorlarga moslashtirishga intilishda davom etmoqda. Bu jihatlar bo'yicha falsafiy mulohaza yuritish prognozlashning hayotimizdagi mohiyati va rolini yaxshiroq tushunishga, shuningdek, uning natijalari va qo'llanilishiga tanqidiy yondashish imkonini beradi. Ilmiy bashorat tushunchasi falsafiy tahlil uchun keng qamrovli mavzudir. Bashorat qilishning falsafiy mazmuni sabab-oqibat aloqalari, ehtimollik nazariyalari va texnologik taraqqiyot bilan bog'liqdir. Falsafiy deterministlar bashorat qilishni aniq bilim olishning imkoniyati sifatida ko'rsalar, skeptiklar va indeterminizm tarafdorlari bu jarayonni cheklangan deb biladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Callan, T. (1985). Prophecy and Ecstasy in Greco-Roman Religion and in 1 Corinthians. *Novum Testamentum*, 27, 125-140. <https://doi.org/10.1163/156853685X00102>.
2. Birdwhistell, A. (1989). Transition to Neo-Confucianism: Shao Yung on Knowledge and Symbols of Reality. <https://doi.org/10.2307/1399303>.
3. Holopainen, T. (2014). Concepts and Concept Formation in Medieval Philosophy. 263-279. https://doi.org/10.1007/978-94-007-6967-0_17.
4. Reeves, M. (1969). The Influence Of Prophecy In The Later Middle Ages A Study In Joachimism. <https://doi.org/10.2307/1869790>.
5. Vermeir, K. (2004). The 'physical prophet' and the powers of the imagination. Part I: a case-study on prophecy, vapours and the imagination (1685–1710). *Studies in History and Philosophy of Science Part C: Studies in History and Philosophy of Biological and Biomedical Sciences*, 35, 561-591. <https://doi.org/10.1016/J.SHPSC.2004.09.001>.
6. Micheli, A., & Torres, P. (2015). [On the evolution of scientific thought]. *Archivos de cardiologia de Mexico*, 85 4, 323-8. <https://doi.org/10.1016/j.acmx.2015.06.003>.
7. Gardner, M. (1982). Predicting Novel Facts. *The British Journal for the Philosophy of Science*, 33, 1 - 15. <https://doi.org/10.1093/bjps/33.1.1>.
8. Reinken, B. (2022). Cosmopocalypse: From Prophetic Vision to Political Foresight in *Romola*. *Victorian Literature and Culture*, 51, 233 - 259. <https://doi.org/10.1017/S1060150322000055>.
9. Zhu D., Du H., Sun Y., Cao N. Research on Path Planning Model Based on Short-Term Traffic Flow Prediction in Intelligent Transportation System. *Sensors (Basel, Switzerland)*, 18. – 2018. <https://doi.org/10.3390/s18124275>.
10. Diao Z., Zhang D., Wang X., Xie K., He S., Lu X., Li Y. A Hybrid Model for Short-Term Traffic Volume Prediction in Massive Transportation Systems. *IEEE Transactions on Intelligent Transportation Systems*, 20. – 2019. – P. 935-946. <https://doi.org/10.1109/TITS.2018.2841800>.

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 5, СОН 3

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ТОМ 5, НОМЕР 3

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

VOLUME 5, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000